O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT
UNIVERSITETI

MINISTRY OF HEALTH OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT STATE MEDICAL
UNIVERSITY

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2 2. Farobiy str. Tashkent 100109

Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tashmeduni.uz, e-mail: info@tashmeduni.uz, tashmeduni@exat.uz

18 iyun 2026 yil. **10315-son**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Ilmiy kengashi yig‘ilishining 11-son BAYONI

Toshkent shahar 2026-yil 26-may

Raislik qiluvchi: Sh.A. Boymuradov - Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori

Qatnashdilar: Toshkent davlat tibbiyot universiteti Ilmiy kengashi a’zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

K U N T A R T I B I :

1. Toshkent davlat tibbiyot universiteti jamoasi tomonidan 2025-2026-o‘quv yilida olib borilgan ma’naviy - ma’rifiy ishlar holati, muammolar, yechimlar.

Ma’ruzachi – Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov.

2. Bolalar terapevtik stomatologiyasi kafedrasining o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy va ma’naviy faoliyati bo‘yicha hisoboti.

Ma’ruzachi – Bolalar terapevtik stomatologiyasi kafedrasi mudiri S.S.Murtazayev.

3. Dissertasiya, monografiya, o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbig‘ini tasdiqlash.

Ma’ruzachilar – O‘quv-metodik ta’minot bo‘limi boshlig‘i J.A.Anvarov, Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova.

4. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan ma’qullandi.

Q A R O R Q I L A D I :

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo‘yicha “Toshkent davlat tibbiyot universitetining (keyingi o‘rinlarda – Universitet) jamoasi tomonidan 2025-2026-o‘quv

yilida olib borilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar holati, muammolar, yechimlar” mavzusi yuzasidan Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratovning ma’lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma’ruzalar matnda keltirilgan).

1.1. Universitet kafedralarida “Kelajak soati” rukni ostida Ma’rifat darslarining sifati va samaradorligi oshirilishi bo‘yicha ishlar jadallashtirilsin.

Mas’ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2026-2027-o‘quv yili davomida.

1.2. Yoshlar bilan ishlash va ma’naviy-ma’rifiy sohaga raqamlashtirish jarayonlarini joriy etilsin.

Mas’ul: Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi rahbari A.K.Musaxonov.

Muddat: 2026-2027-o‘quv yili davomida.

1.3. Tyutorlar faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida ularning yillik xisoboti tahlil qilinsin, faoliyati tanqidiy o‘rganilib chiqilsin, ularning natijasi doirasida KPI asosida baholash tizimi samaradorligi oshirilsin.

Mas’ul: Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, fakultet dekanlari, Tyutorlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i A.R.Mamarajabov.

Muddat: 2026-yil iyun.

1.4. “Korrupsiyadan holi hudud va Universitet” loyihasi doirasida xodimlar va talabalar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurash choralarini kuchaytirilsin.

Mas’ul: Barcha prorektorlar, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo'limi boshlig‘i X.S.Ravshanov.

Muddat: doimiy.

1.5. Giyohvandlikka qarshi kurashish va narkojinoyatlarni oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlar salmog‘i oshirilishi ta’minlansin.

Mas’ul: fakultet dekanlari, Tyutorlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i A.R.Mamarajabov.

Muddat: 2026-2027-o‘quv yili davomida.

1.6. Professor-o‘qituvchilar va talabalarni ommaviy sportga keng jalb etish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilar qamrovini oshirish choralarini ko‘rilsin.

Mas’ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va sport bo‘limi boshlig‘i Z.B.Fayziyev.

Muddat: 2026-2027-o‘quv yili davomida.

1.7. Universitet hududi va kafedralarda sport muhitini rivojlantirish maqsadida “Chorshanba - sport kuni” doirasida sport tadbirlari va musobaqalar salmog‘ini va ularda xodimlar va talabalar qamrovini oshirish bo‘yicha ishlar jadallashtirilsin.

Mas’ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va Sport bo‘limi boshlig‘i Z.B.Fayziyev.

Muddat: 2026-2027-o‘quv yili davomida haftaning har chorshanba kuni.

1.8. Universitet kafedralari tomonidan talabalarni odob-axloq qoidalari, kiyinish madaniyatiga amal qilish bo‘yicha ishlar kuchaytirilsin.

Mas’ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, tyutorlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi.

Muddat: 2026-2027-o‘quv yili davomida.

1.9. Talabalar turar joyida yashovchi ijtimoiy himoyaga muhtoj (“Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari”, ota-onasidan biri vafot etgan va boquvchisini yo‘qotgan) 1-ilovada ismi sharifi keltirilgan 18 nafar talabalarga TTJ to‘lovlarining hozirgacha to‘lanmay qolgan qismi to‘lab berilsin.

1.10. Universitetning 2-ilovada ismi sharifi keltirilgan 15 nafar “Qalqon” jamoatchilik guruhi a’zolari O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Yoshlar ishlari agentligi hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida “Oliy ta’lim muassasasi beshligi”ni tashkil etish hamda “Qalqon” jamoatchilik guruhlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 55-Q/Q -son qo‘shma qaroriga muvofiq TTJ uchun to‘lovlarning 50% miqdorini to‘lashdan ozod etilsin.

Mas’ul: Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor T.A.Bobomuratov, Moliya-iqtisodiy ishlar bo‘yicha prorektor N.L.Asqarov.

Muddat: 2026-yil, iyun.

1.11. 3-ilovada ismi shariflari keltirilgan 10 nafar xorijiy talabalarning talabalar turar joyida yashamagan oyilari uchun too‘lovlari belgilangan tartibda hsoblansin hamda shartnoma summasi o‘zgartirilsin.

Mas’ul: Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor N.L.Asqarov, xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunov.

Muddat: 2026-yil, iyun.

2.Kun tartibining keyingi masalasi “Bolalar terapevtik stomatologiyasi kafedrasining o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy va ma’naviy faoliyati bo‘yicha hisoboti” mavzusi bo‘yicha Bolalar terapevtik stomatologiyasi kafedrasi mudiri S.S.Murtazayevning ma’lumoti axborot uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

3. Kun tartibining keyingi masalasi “Dissertatsiya, monografiya, o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbig‘ini tasdiqlash” bo‘yicha O‘quv-metodik ta’minot bulimi boshlig‘i J.A.Anvarov va Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi (ilovalarda keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

4. Turli masalalar bo‘yicha O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori K.N.Xaitov, Moliya-iqtisodiy ishlar bo‘yicha prorektori N.L.Asqarov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar

bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori J.D.Israilov, O‘quv-uslubiy departament boshlig‘i F.X.Azizova, Magistratura va klinik ordinatura bo‘limi boshlig‘i A.A.Imamov so‘zga chiqdilar.

4.1. 2026-2027 o‘quv yili qabul komissiyasi mas’ul kotibi etib Hududiy ta’lim muassasalari va texnikumlar bilan ishlash bo‘yicha prorektori S.R. Baymakov tavsiya etilsin.

4.2. Universitetning bakalavriat va magistratura yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan iqtidorli talabalar orasida oliy ta’limdan keyingi ta’lim (magistratura va doktorantura) ni munosib kadrlar bilan boyitish hamda kafedralarda olib qolish maqsadida tashviqot va seleksiya ishlari samarali olib borilishi ta’minlansin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor K.N.Xaitov, Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A. Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2026-yil davomida.

4.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2030-yilgacha oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining oliy ta’lim xizmatlari eksporti hajmini oshirish bo‘yicha berilgan topshiriqlari ijrosini ta’minlash maqsadida, Universitetda 2026/2027-o‘quv yili uchun xorijiy fuqarolarni to‘lov-kontrakt asosida o‘zbek va rus tilida tahsil olish istagini bildirgan xorijiy fuqarolar Universitetning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari, magistratura hamda klinik ordinatura mutaxassisliklariga o‘qishga kirish, o‘qishni ko‘chirish va qayta tiklashi uchun hujjat topshirish muddati 2026-yil 22-iyundan 30-iyulgacha belgilansin.

Mas’ullar: O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor K.N.Xaitov, Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor J.D.Israilov, Qabul komissiyasi mas’ul kotibi, Xalqaro fakultet dekani D.X. Tursunov.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF -58-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida, 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab xorijiy talabalarni qabul qilishning amaldagi tartibiga qo‘shimcha ravishda qabul jarayonlarini “Study in Uzbekistan” platformasi orqali amalga oshirish mexanizmi joriy etilsin.

Mas’ullar: Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor J.D.Israilov, Moliya va iqtisodiy ishlar bo‘yicha prorektor N.L.Asqarov, Qabul komissiyasi mas’ul kotibi, Xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunov, Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi rahbari A.K.Musaxanov.

Toshkent davlat tibbiyot unuversitetining moddiy texnik bazasi va professor-o‘qituchilar soni va salohiyatidan kelib chiqqan holda 2026/2027-o‘quv yili uchun xorijiy talabalarni qabul va o‘qitish uchun mavjud sig‘imi yo‘nalish va tillar kesimida ishlab chiqilsin.

Mas’ullar: O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor K.N.Xaitov, Xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunov, O‘quv-uslubiy departamnt boshlig‘i F.X.Azizova.

IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ERI bilan tasdiqlangan, Hujjat kodi: WS41111027

4.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli topshiriqlariga muvofiq Germaniyaning Lyubek Universiteti bilan hamkorlikni rivojlantirish va o‘zaro sheriklikni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida:

a) joriy yilning 1-3-iyun kunlari Lyubek Universiteti Prezidenti, professor Xelge Braun boshchiligidagi delegatsiyaning Universitetga tashrifi ma’lumot uchun qabul qilinsin va delegatsiya tashrifi bilan bog‘liq barcha xarajatlar ToshDavTUning budjetdan tashqari mablag‘lari evaziga qoplansin.

b) hamkorlik doirasida 2026-yil 22-iyunidan 3-iyuliga qadar Universitetning yosh kadrlaridan iborat delegatsiya vakillari Germaniya Lyubek shahriga malaka oshirish va tajriba almashish maqsadida xizmat safariga yuborilsin va xizmat safari bilan bog‘liq barcha xarajatlar Universitetning budjetdan tashqari mablag‘lari evaziga qoplansin.

c) Universitet hamda Lyubek Universiteti o‘rtasida samarali va istiqbolli hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish, ta’lim, ilm-fan va akademik almashinuv yo‘nalishlaridagi tashabbuslari, shuningdek, Universitetning xalqaro nufuzini oshirish va o‘quv jarayonlarini takomillashtirishga qo‘shgan munosib hissasi uchun Lyubek Universiteti Prezidenti, professor Xelge Braun va Tibbiyot bo‘yicha Vitse-Prezidenti, professor Tomas Myuntelarga Universitetning “Faxriy professori” unvoni berilsin.

4.5. Tibbiy ta’lim sohasida xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, Universitet bilan uzoq yillik samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va mustahkamlash, qo‘shma ilmiy tadqiqotlar, xalqaro konferensiyalar hamda mutaxassislar tayyorlash jarayonlariga qo‘shgan salmoqli hissalari uchun:

Rossiya Federatsiyasining Samara davlat tibbiyot universiteti Stomatologiya kafedrasi mudiri, Rossiya Stomatologlar Assotsiatsiyasi Prezidenti, tibbiyot fanlari doktori, professor Dmitriy Aleksandrovich Truninga;

Bolgariyaning Medical University – Sofianing yetakchi olimi va pedagogi, tibbiyot fanlari doktori, professor Mariana Iordanova Dimova-Gabrovskalarga Universitetning “Faxriy professori” unvoni berilsin.

4.6. Nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasi professori, t.f.d. M.M.Asadullayevning rahbarligidagi FM-20230414707-raqamli “Qon aylanish kasalliklari (Uyqu va yonbosh arteriyalar aterokaltsinozi) kliniko-biokimyoviy va patogenetik muammolari, nevrologik, kognitiv, suyak bo‘g‘imlari asoratlari, davolash” mavzusidagi bajarilgan 2025-yil 1-iyundan 2026-yil 30-maygacha bajarilgan ilmiy ishlar to‘g‘risidagi hisoboti tasdiqlansin.

Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o‘z ishini yakunladi.

Rektor **Sh.A. Boymuradov**

ORX5460